



ETHNOCULTURAL RELATIONS BETWEEN THE LOCAL POPULATION AND EAST SLAVIC PEOPLES IN THE TERRITORY OF TURKESTAN

S. Norbekov

*Muhammad al-Khwarizmi Tashkent University of Information Technologies
Uzbekistan, Tashkent*
E-mail: norbekovsuhrob96@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: early 20th-century statehood, Turkestan ASSR, indigenous Uzbek population, East Slavic peoples, Soviet authority, migration, interethnic relations, economic life, cultural integration.

Received: 01.06.25

Accepted: 03.06.25

Published: 05.06.25

Abstract: This article examines the presence of East Slavic peoples in the territory of Turkestan during the first half of the 20th century and analyzes their interactions with the local population. It explores the distinct social, political, and economic influences of Slavic communities, their role in transforming Turkestani society, as well as the roots of integration, migration, and tensions with the indigenous peoples. The study highlights how, under the Russian Empire and later the Soviet Union, the East Slavic peoples developed strong connections with neighboring regions, and their cultural integration, economic participation, and political influence left a significant impact on the socio-economic structure of Turkestan. Particular attention is given to the processes of Slavicization, mutual integration, and interethnic conflicts.

TURKISTON HUDUDIDA MAHALLIY AHOLI VA SHARQIY SLAVYAN XALQLARI O'RTASIDAGI ETNOMADANIY MUNOSABATLAR

S. Norbekov

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
O'zbekiston, Toshkent*
E-mail: norbekovsuhrob96@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: XX asr boshlari davlatchilik masalasi, Turkiston ASSR, mahalliy tub joy o'zbeklari, Sharqiy slavyan xalqlari, Sovet hokimiyati, migratsiya,

Annotatsiya: Maqola XX asrning birinchi yarmida Turkiston hududida Sharqiy Slavyan xalqlarining mayjudligi va ularning mahalliy xalqlar bilan o'zaro aloqalari tahlil qilinadi. Slavyan xalqlarining o'ziga xos

millatlararo munosabatlar, iqtisodiy hayot, madaniy integratsiya.

ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ta'sirlari, ularning Turkiston jamiyatiga qadar o'zgartirishlar kiritishdagi roli hamda mahalliy xalqlar bilan integratsiyasi, migratsiyasi va qarama-qarshiliklarining ildizlari o'rganiladi. Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet Ittifoqi davrida Sharqiy Slavyan xalqlarining qo'shni hududlar bilan aloqalari, madaniy integratsiyasi, iqtisodiy va siyosiy ta'siri yuqori darajada rivojlanib, Turkiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida iz qoldirdi. Maqolada birinchi navbatda Turkiston hududining slavyanlashuvi jarayonlari, ularning o'zaro integratsiyasi va ziddiyatlarining aniq tahlili amalga oshiriladi.

ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ МЕСТНЫМ НАСЕЛЕНИЕМ И ВОСТОЧНОСЛАВЯНСКИМИ НАРОДАМИ НА ТЕРРИТОРИИ ТУРКЕСТАНА

C. Норбеков

Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада аль-Хоразмий
Узбекистан, Ташкент

E-mail: norbekovsuhrob96@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: государственность начала XX века, Туркестанская АССР, местные узбеки, восточнославянские народы, советская власть, миграция, межнациональные отношения, экономическая жизнь, культурная интеграция.

Аннотация: В статье рассматривается присутствие восточнославянских народов на территории Туркестана в первой половине XX века и их взаимодействие с местным населением. Анализируется социальное, политическое и экономическое влияние славянских народов, их роль в трансформации туркестанского общества, а также процессы интеграции, миграции и корни противоречий между народами. Отмечается, что в период Российской империи, а затем Советского Союза, связи восточнославянских народов с соседними регионами, культурная интеграция, а также экономическое и политическое воздействие достигли высокого уровня, что оставило заметный след в социально-экономической структуре туркестанского общества. Особое внимание в статье уделяется процессам славянизации территории Туркестана, интеграции и конфликтным аспектам межэтнических отношений.

XX asrning birinchi choragida Turkiston hududida mahalliy o'zbek, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, turkman kabi xalqlar bilan bir qatorda Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet Ittifoqi siyosiy va ijtimoiy jarayonlari ta'sirida ko'plab sharqiy slavyan xalqlari – ruslar, ukrainlar,

beloruslar ham yashab kelgan. Ularning mintaqaga ko‘chib kelishi avvalo Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, keyinchalik esa Sovet Ittifoqining sanoatlashuv, kollektivlashtirish va migratsiya siyosati natijasida yuzaga kelgan.

Bu xalqlar bilan mahalliy aholi o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik, madaniy aloqalar, ijtimoiy integratsiya bilan birga, ba’zan ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar, millatlararo keskinliklar ham kuzatilgan. Ayniqsa, shahar markazlarida va sanoatlashgan hududlarda sharqiy slavyan xalqlari muhim ijtimoiy pozitsiyalarni egallagan, bu esa ayrim hollarda mahalliy aholining noroziligiga sabab bo‘lgan.

Shu bilan birga, madaniyat, ta’lim, texnika, tibbiyot sohalarida hamkorlik natijasida ijobjiy o‘zgarishlar ham yuz bergan. Sharqiy slavyan xalqlari va mahalliy aholi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, bu munosabatlar Turkiston tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

XX asr birinchi choragi Turkiston hududi o‘zining geosiyosiy ahamiyati, iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarining o‘zgarishi bilan tarixiy jarayonlarga katta ta’sir ko‘rsatgan. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va keyinchalik Sovet Ittifoqining inqilobi transformatsiyalari Turkiston hududidagi jamiyatni tubdan o‘zgartirdi. Ushbu o‘zgarishlar, xususan, Sharqiy Slavyan xalqlarining Turkiston hududiga ko‘chib kelishi va bu xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy ta’siri bilan bog‘liq. Turkistonning yangi siyosiy tuzilmasi, iqtisodiy integratsiyasi, millatlararo aloqalari va Sharqiy Slavyan xalqlari bilan o‘zaro munosabatlari o‘zining tarixiy jihatlari bilan juda murakkab va qiziqarli bir mavzuni tashkil etadi.

Rossiya imperiyasining Turkiston hududiga ta’siri va ularning iqtisodiy siyosatidagi o‘zgarishlar mahalliy aholi hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Turkistonning asosan agrar jamiyatni bo‘lgan iqtisodiy tuzilmasi, Sharqiy Slavyanlarning kelishi bilan industrializatsiya va kapitalistik tizimlar asosida qayta qurildi. Rossiya imperiyasining ishlab chiqarish va savdo tizimiga bo‘lgan monopoliyasi, shuningdek, yangi infratuzilma, temir yo‘llar va sanoat obyektlarini qurish, mahalliy iqtisodiyotga katta o‘zgarishlar olib keldi.

Slavyanlar tomonidan olib kelingan yangi texnologiyalar, sanoat usullari va ishlab chiqarish metodlari mahalliy aholiga yangi imkoniyatlar yaratdi. Biroq, bu o‘zgarishlar ko‘pincha mahalliy aholi manfaatlariga zid bo‘lib, iqtisodiy qaramlik va etnik tengsizlikni kuchaytirdi. Misol uchun, yer tizimi va mehnat resurslarining boshqarilishi, ko‘plab millatlarning iqtisodiy jihatdan bog‘lanishiga olib keldi. Shu bilan birga, sharqiy slavyanlarning yangi iqtisodiy aloqalari ham yangi tovarlar, mahsulotlar va bozorlar bilan o‘zaro savdo aloqalarini kuchaytirdi.

Turkiston hududiga Ko‘chirilayotganlar Rossiya imperiyasining fuqarolari: Ukrainaning turli viloyatlari va Rossiyaning janubidan: Xarkov, Poltava, Kiyev, Don qo‘shinlari viloyatlari, Yekaterinoslav, Saratov, Samara, Voronej, Tula, Astraxan, Kursk, Stavropol, Orenburg va

boshqalardan, shuningdek Sibir, Shimoliy Rossiya, Kavkazdan kelgan. Ularning milliy tarkibi anchayin bir bo‘lim asosan sharqiy slavyan xalqlari: ruslar, ukrainlar va beloruslar edi, chunki “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra, ko‘chirishga faqat “qishloq aholisi toifasiga mansub nasroniy diniga e’tiqod qiluvchi rus fuqarolari”gagina ruxsat etilardi[1;1].

Shu o‘rinda Turkistonning asosiy bo‘lagi bo‘lmish Farg‘ona vodiysiga ko‘chirilgan deyarli barcha rus-ukrain qishloqlari vodiyyadagi shimoliy, shimoli-sharqiy va sharqiy tog‘ etaklarida joylashgan edi (O‘sh uyezdining Mayak va Qurshob volostlari; Andijon uyezdining Bozorqo‘rg‘on, Jalolobod, Qo‘g‘art, O‘zgan, Yassi volostlari; Namangan uyezdining Barish volosti). Bu joylardagi qishloq xo‘jaligi sharoitlari rus va ukrain dehqonlari uchun odatiy bo‘lib, sun‘iy sug‘orishsiz ham dehqonchilik qilish mumkin edi. Faqtgina Russkoye qishlog‘i Andijon uyezdining Mingtepa volostidagi bir nechta qishloq o‘rnida tashkil etilgan bo‘lib, ko‘chib kelganlar bu yerda katta miqdorda sug‘oriladigan yerlar oladilar. Ammo Farg‘onaga kelgan yevropalik aholining katta qismi shaharlarda o‘rnashdi, chunki u yerlarda rus ma’muriyati, sanoat va savdo korxonalari joylashgan edi. Masalan, 1907-yilda Farg‘ona viloyatida 24346 rus (ukrainlar va beloruslar) bor edi, ulardan shaharlarda 14722 kishi, ya’ni taxminan 2/3 qismi, qishloq joylarda esa atigi 9624 kishi yashar edi (138, 27-bet). Bu esa dehqonlar ko‘chirilishi kuchayganidan keyin ham shunday edi. Turkistonning barcha shaharlaridagi kabi, Farg‘ona shaharlarida ham yangi, asosan yevropaliklar yashaydigan tumanlar paydo bo‘ldi[1;2].

Sharqiy Slavyanlar, ayniqsa, ruslar, o‘z madaniyatini, tilini, urf-odatlarini va qadriyatlarini Turkiston hududiga olib kelgan. Mahalliy aholi, o‘z navbatida, yangi etnik guruhlar bilan yuzmayuz keldi. Bu jarayon, o‘zaro madaniy farqlarni yuzaga keltirdi, ammo vaqt o‘tishi bilan, bir-biriga qarshi kurashlar va ziddiyatlar ham paydo bo‘ldi. Sharqiy Slavyanlar va mahalliy xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar, faqat ijtimoiy strukturalarda emas, balki ma’rifat, diniy e’tiqodlar va mehnat bozorida ham sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Sharqiy Slavyan xalqlari o‘zlarini bilan yangi madaniy qadriyatlarni olib kelgan. Ular orasida pravoslavlik dini, rus san’ati, musiqa va me’morchilik an’analari keng tarqalgan. Slavyanlar tomonidan olib kelingan madaniy inshootlar, ilm-fan, ta’lim tizimlari mahalliy xalqlar orasida ta’sir ko‘rsatdi. Rus tili va ta’limi mahalliy aholi orasida o‘sishga sabab bo‘ldi, bu esa yangi avlodlarni ilm-fan sohasida rivojlantirishga yordam berdi. Madaniy integratsiya jarayoni shuningdek, yangi ma’naviy qadriyatlar va ilmiy yondoshuvlarni joriy qilish orqali Turkiston hududidagi o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Bu xalqlarni ijtimoiy-iqtisodiy tizimda muhim o‘rin egallagan guruhlarga aylantirdi. Madaniy ta’siriga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak ushbu xalqlar, ayniqsa ruslar, o‘zlarining madaniyatini, ilm-fanini va texnologiyalarini olib keldi. Bu o‘zgarishlar Turkistonning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi, lekin shu bilan birga mahalliy madaniyat bilan ijtimoiy va madaniy ziddiyatlar ham yuzaga keldi.

Xususan XX asr boshlarida ko‘chib kelish jarayonlarining kuchayishi va ko‘plab rus-ukrain qishloqlari hamda xutorlarining paydo bo‘lishi, shaharlarda yevropalik aholining ko‘payishiga qaramay, Farg‘onada ularning umumiy soni kam edi. 1910-yil holatiga ko‘ra, yevropalik, asosan rus va ukrain aholisi bu yerda 2% dan sal ko‘proq edi[1;3]. Biroq bu oz sonli guruh hukmron bo‘lib, o‘z irodasi va siyosatini o‘tkazardi, bu esa tabiiy ravishda mahalliy aholining butun ruslarga nisbatan dushmanligini kuchaytirardi. Bunga Chor hukumating nasroniy bo‘lmaganlarga nisbatan olib borgan kamsitish siyosati va davlat idoralarining rasmiy tili rus tiliga aylantirilishi ham sabab bo‘ldi. Hatto mahalliy aholining iltimos va shikoyatlari ham faqat rus tilida qabul qilinadigan bo‘ldi, buning uchun mahalliy aholi kotiblar, tilmochlar yoki ishonchli vakillar xizmatidan foydalanishga majbur bo‘lardilar.

Sharqiy Slavyanlarning Turkiston hududiga ko‘chishi, ayniqsa, iqtisodiy sohada katta ta’sir ko‘rsatdi. Temir yo‘l qurilishi, yangi sanoat tarmoqlarining paydo bo‘lishi, yangi texnologiyalarning kirib kelishi orqali Turkiston iqtisodiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi. Ruslar hukumat va ma’muriyat tizimini mustahkamlash orqali, bu hududdagi siyosiy struktura va hokimiyatni to‘liq nazoratga olishdi. XX asr boshlarida Turkiston iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo bilan bog‘liq bo‘lsa, Sharqiy Slavyanlar ko‘plab kelib joylashuvi bilan bu sohalarga yangiliklar kiritildi. Misol uchun, Mahalliy dehqonlar omoch o‘rniga lemeshli plugni, yanchish uchun tosh g‘altakni va rus shamol mashinalarini ishlatalishni boshladilar. Turkistonda kartoshka, oq boshli va gulkaram, pomidor, qand lavlagi, suli kabi qishloq xo‘jalik ekinlari paydo bo‘ldi . Farg‘onada, xususan, Namangan uyezdida Turkistonda rus fabrika ishining asoschisi K.V.Solovyov tomonidan mayin junli qo‘ychilikni joriy etishga urinish amalga oshirildi[1;4]. Slavyanlar tomonidan olib kelingan yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish usullari va savdo aloqalari Turkiston iqtisodiyotini yangilashga yordam berdi. Biroq, bunday o‘zgarishlar mahalliy aholining urf-odatlariga va iqtisodiy hayotiga qarama-qarshi ta’sirlar ko‘rsatdi, chunki mahalliy iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlari ruslar tomonidan monopoliyalashgan edi. Buning natijasida, mahalliy aholi, ko‘pincha, o‘z erkinliklari va resurslari uchun kurash olib bordi.

Farg‘ona viloyatidagi sanoat, temir yo‘l va boshqa infratuzilma sohalariga ko‘chib kelgan rus ishchilari soni 1900-yillarda 5000 nafarga yetdi. Bu ishchilar asosan Qoqon, Andijon va Namangan kabi shaharlar va sanoat markazlarida ishlashgan. Farg‘onadagi temir yo‘l qurilishida ruslar va mahalliy ishchilar birgalikda ishlashdi. 1905-yilgi inqilobda rus va mahalliy ishchilar o‘rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlandi. Bu inqilobi voqealar davomida, rus va mahalliy ishchilar o‘rtasidagi hamkorlik kuchayib, ular birgalikda ijtimoiy va siyosiy erkinlik talab qilishdi. Bu jarayon, o‘z navbatida, etnik guruhlar o‘rtasidagi yirik to‘qnashuvlar va siyosiy kuchlar o‘rtasidagi murosasizliklar yuzaga keltirdi.

Ushbu xalqlarning Turkiston siyosatiga ta'siri xususida to'xtalmasdan iloj yo'q albatta, sharqiy slavyan xalqlarining siyosiy faoliyati, asosan, Rossiya imperiyasining boshqaruv tizimi bilan bog'liq edi. Rossiyaning siyosiy hokimiyati Turkiston hududiga ta'sir ko'rsatdi va bu o'zgarishlar mahalliy aholi o'rtasida siyosiy qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirdi. Slavyanlar, ayniqsa, Rossiya imperiyasining elchixonalarida, siyosiy va harbiy tuzilmalarida faol ishtirok etgan. Bu jarayonlar o'zaro integratsiya va etnik guruhlar o'rtasida siyosiy nizolarni keltirib chiqargan. Sharqiy Slavyan xalqlari Rossiya hokimiyatini mahalliy aholi o'rtasida o'natishta uringan bo'lsalar-da, ko'plab ziddiyatlar va ijtimoiy muammolar yuzaga kelgan.

Sharqiy Slavyanlar va mahalliy aholi o'rtasidagi ijtimoiy va etnik aloqalar bir nechta omillar bilan bog'liq edi. Slavyanlarning Turkiston hududidagi keng tarqalishi, birinchi navbatda, siyosiy va iqtisodiy omillar bilan izohlanadi. Mahalliy xalqlar bilan o'zaro munosabatlarda qarama-qarshiliklar, madaniy farqlar va iqtisodiy tengsizliklar yuzaga kelgan. Sharqiy Slavyan xalqlari va mahalliy aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va integratsiya jarayoni murakkab va ziddiyatlarga to'la bo'ldi. Turkiy xalqlar va slavyanlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Slavyanlarning kuchli siyosiy tizimlari va mustahkam iqtisodiy pozitsiyalari, mahalliy xalqlarni ko'pincha ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan chekladi. Biroq, ko'p hollarda o'zaro to'g'ri munosabatlar o'rnatilgan va integratsiya jarayonlari ham amalga oshirilgan deyish mumkin.

Turkiston hududiga xususan, Farg'ona vodiysiga sharqiy slavyanlarning ko'chib kelish jarayoni Birinchi jahon urushi davrida kuchaydi va bu davrda Rossiyaning g'arbiy hududlaridan qochqinlar kela boshlaganida, Farg'onaga ruslarning yana bir oqimi yuzaga keldi deyish mumkin. Qisqa vaqt ichida Turkiston qochqinlar soni keskin oshib ketdi. 1915-yil 19-noyabr holatiga ko'ra Farg'ona viloyatida 21000 kishi joylashgan bo'lib- bu vodiyyda mayjud bo'lgan rus aholisi soniga deyarli teng edi. Farg'ona viloyati, umuman Turkiston singari, bunday ko'p qochqinlarni qabul qilishga tayyor emas edi. Kasalliklar, notanish iqlim, yomon ijtimoiy sharoitlar ular orasida yuqori o'lim darajasining keskin ko'payishiga sabab bo'ldi. Bularning barchasi hukumatni bunday qochqinlarga nisbatan o'z siyosatini o'zgartirishiga sabab bo'ldi. Shunday qilib, hukumat bunday qochqinlarni Turkistondan Rossiyaning boshqa guberniyalariga ko'chirish to'g'risida buyruq chiqardi. Natijada 1916-yil 1-iyun holatiga ko'ra Farg'ona viloyatida atigi 2464 nafar qochqin qolgandi xolos[1;5].

Janubiy Afrika, Rodeziya, Keniya yoki Jazoyirdan farqli o'laroq, Turkistondagi sharqiy slavyanlar bir kun kelib metropoliya nazoratiga qarshi chiqishi mumkin bo'lgan o'ziga xos kreol siyosiy va madaniy o'ziga xoslikni rivojlantirmadi. Buning sababidan biri Rossiya imperiyasi alohida mustamlaka davlatlarini tashkil etmagani bo'lib, bunday davlatlar muqobil hududiy sodiqlik markaziga aylanishi mumkin edi. Boshqa sababi esa, Janubiy Markaziy Osiyoga birinchi yevropalik mustamlakachi aholining kelishi va chor tuzumining Sovet Ittifoqi bilan almashishi

orasida atigi ellik yil o'tgani edi. Yangi tuzum esa O'rta Osiyo hududlarida butunlay boshqacha, millat qurish mantiqiga asoslangan siyosat olib bordi. Shunga qaramay, 1916-yilgi qo'zg'olon va 1920-yildan keyin Sovet hokimiyati o'rnatilishi oralig'idagi notinch yillarda mustamlakachi aholining xatti-harakatlarida bir tomonlama mustaqillik e'lönüning zaif aks-sadolari kuzatildi. Inqilob yillarda Turkistonda etnik urushlar to'liq namoyon bo'ldi. Mustamlakachi aholi 1916-yilgi qo'zg'olondan keyin qo'llanilgan jazo choralaridan foydalanib, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarida mahalliy aholi hisobiga yerlarni bosib olishga kirishdi. 1917-yilda chor hukumati butunlay qulagan paytda, mustamlakachi aholi "bolshevism" niqobi ostida sobiq rasmiy hukmron sinfnинг imtiyozlarini o'zlashtirmoqchi bo'ldi. Toshkent, Verniy va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida hokimiyatga da'vogarlik qilgan Sovetlar deyarli faqat rus askarlari va temir yo'l ishchilaridan iborat edi. Ular musulmonlarni qoloq va proletariatga ega emas deb hisoblab, ularni qabul qilishdan bosh tortishdi hamda musulmon ziyolilarining mintaqada o'z avtonom hukumatlarini tuzish harakatlariga zo'ravonlik bilan javob berishdi[2;1].

XX asr birinchi choragi so'ngi yillarda Sharqiy slavyan xalqlarining Turkiston ASSR dagi o'rni va mahalliy aholi bilan munosabatiga to'xtaladigan bo'lasak, 1918-1922-yillardagi fuqarolar urushi davrida Sharqiy slavyan aholisi Turkiston ASSRda muhim siyosiy va harbiy rol o'ynagan. Ayniqsa, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida ularning ulushi sezilarli bo'lgan. Sovet hokimiyati Rossiyaning ocharchilikka uchragan hududlaridan Turkistonga aholining ko'chishini rag'batlantirgan, bu esa mahalliy aholining demografik tarkibiga ta'sir qilgan. Sovet hukumati dastlab Turkistondagi rus va ukrain ma'muriy va harbiy kadrlaridan foydalanishga majbur bo'lgan, chunki mahalliy kadrlar yetishmovchiligi bor edi. Keyinchalik bolsheviklar Sharqiy slavyanlardan tarkib topgan sobiq imperiya ma'muriyati va harbiy qismlarni "ishonchsiz element" sifatida baholab, ularni jamiyatdan chetlatish siyosatini olib bordi[3;1].

1918-1924-yillarda Sharqiy slavyan xalqlari Turkiston ASSRda muhim demografik va ijtimoiy guruh sifatida shakllangan. Ularning aksariyati Rossiyadagi fuqarolar urushi va ocharchilik tufayli bu hududga ko'chib kelgan. 1920 yilda Turkiston ASSRda jami 5,2 million aholi bo'lib, shundan 536 671 nafari ruslar, 4,7% ukrainlar va 0,2% beloruslar tashkil qilgan[3;2].

Sovet milliy siyosatining muhim jihatni Turkiston ASSRda aholi tarkibini qayta shakllantirish bo'lib, 1921-yildan boshlab Rossiyaning ocharchilikka uchragan hududlaridan minglab sharqiy slavyanlar Turkistonga ko'chirilgan. Sovet ma'murlari ushbu aholini "Sirdaryo va Samarqand viloyatlarining dehqon aholisi orasiga" joylashtirishni maqsad qilgan[3;3]. Bu jarayon Turkiston ASSRning etnik tarkibiga jiddiy ta'sir o'tkazgan

Bag'rikenglik siyosati Turkiston ASSRda ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynagan. Biroq, bu jarayon ba'zan sun'iy ravishda amalga oshirilgani sababli millatlararo nizolar ham yuzaga kelgan. Sovetlar mahalliy millat vakillarini davlat boshqaruviga jalb qilishga harakat

qilgan bo‘lsa-da, ko‘pincha rahbar lavozimlariga slavyan vakillari tayinlangan[3;4]. Lekin, Sovet hukumati 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida jamiyatni sinfiy tozalash siyosatini kuchaytirgan. Bu jarayonda “sotsialistik jamiyat qurilishi uchun xavfli” deb hisoblangan ijtimoiy guruhlar nishonga olingan[4;1]

XX asrning birinchi choragida Turkiston hududida mahalliy aholi va Sharqiy Slavyan xalqlari o‘rtasidagi aloqalar ko‘p qirrali bo‘lib, ular iqtisodiy, madaniy va ta’lim sohalarida sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ruslashtirish siyosati va rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi, o‘z navbatida, mahalliy aholi va Sharqiy Slavyan xalqlari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirdi, ammo bu jarayonning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan mahalliy xalqlarning reaksiyasiga bog‘liq bo‘ldi. Farg‘ona viloyatidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar, o‘zgaruvchan ijtimoiy va siyosiy muhitda Sharqiy Slavyan xalqlari bilan yaqin munosabatlarni rivojlantirishga yordam berdi, bu esa Turkistonning tarixiy taraqqiyotida muhim o‘rin egalladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX - начале XX в. (этнокультурные процессы). Ташкент, 1991. - 101-112 б.
2. Peasant settlers and the ‘civilizing mission’ in Russian Turkestan, 1865-1917 Journal of Imperial & Commonwealth History Vol.43 No.3 (2015) pp.387 - 417
3. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik/ R. Murtazayeva. - Toshkent: «Go To Print»,2020. - 344 б
4. O.G.Pugovkina Turkiston jamiyatini sovetlashtirishning ijtimoiy va siyosiy tuzulmasida “Sobiqlar” (1917-1930-yy.):tarix va manbalar /Toshkent: //SANBOOK EXCLUSIVE PRINT, 2023